



FARG'ONA VILOYATI RISHTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 18 - may

130-11-158-Q/23

Rishton tumani hokimligi

Rishton tumani hududida yer uchastkalari va bino-inshootlarga o'rnatilgan tashqi reklama obyektlarini (konstruktsiyalarini) joylashtirish tartibi va tariflarini tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilini Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagi "Tashqi reklama bozorini tartibga solish to'g'risida"gi 104-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-iyundagi "Reklama to'g'risida"gi 776-sonli Qonunning ijrosini ta'minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilini Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagi "Tashqi reklama bozorini tartibga solish to'g'risida"gi 104-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-iyundagi "Reklama to'g'risida"gi 776-sonli Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman komissiyasi a'zolari yer uchastkalari va bino-inshootlarga o'rnatilgan tashqi reklama obyektlariga (konstruktsiyalariga) joylashtirilgan reklama yozuvlarini xatlovdan o'tkazishni ta'minlasin.

Komissiya a'zolari 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman komissiyasi (N.Oripov)ga komissiya majlislarini tayyorlash va o'tkazish, o'zboshimchalik bilan o'rnatilgan tashqi reklama obyektlarini (konstruktsiyalarini) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagi "Tashqi reklama bozorini tartibga solish to'g'risida"gi 104-sonli qarori talablariga mosligini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Dehqonov) mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilsin.

5. Mazkur qarorni tasdig'i xalq deputatlari tuman kengashidan so'ralsin.

Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari A.Mustafako'lov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



S.Soliyev

Rishton tuman hokimining
2023 yil 18 maydagi
130-11-158-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Rishton tumanida korxonalar va tashkilotlar, savdo shaxobchilari, kitob savdo do'konlarida tashqi yozuvlar (peshlavha, reklama va boshqa e'lonlar, axborot matnlari)ning davlat tili to'g'risidagi qonunchilik xujjatlari talablariga muvofiq bo'lishligini o'rganish hamda monitoringini yuritish bo'yicha ishchi guruh

TARKIBI

№	F.I.SH	Ish joyi va lavozimi	Telefon raqami
1	A.Xaydarov	Ma'naviyat va davlat tilida ish yuritish masalalari bo'yicha tuman hokimining maslahatchisi (<i>ishchi guruh rahbari</i>).	90-530-44-08
2	O.Madaminov	Din ishlari bo'yicha qo'mitaning Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasining Rishton tumani bo'yicha bosh mutaxassisi.	91-282-08-77
3	M.Musayev	IIB mas'ul xodimi.	90-306-78-56
4	S.Nurmatova	Tuman DSI rahbari o'rinbosari.	91-672-88-58
5	D.Dodoboeva	Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi bosh mutaxassisi.	90-530-70-97
6	S.Haydarov	Obodonlashtirish boshqarmasi Rishton tuman bo'limi rahbari.	99-992-39-08
7	Sh.Abdurahmonov	Tuman qurilish bo'limi rahbari.	90-63051-53
8	U.Urayimov	Tuman Investitsiya va tashqi savdo bo'limi mutaxassisi.	97-501-00-75
9	M.Alijonov	Yoshlar ishlari agentligi rahbari.	91-601-51-51

Izoh: Ushbu ishchi guruhga birlashtirilgan a'zolar boshqa ishga o'tgan taqdirda, ushbu lavozimga

tayinlangan shaxslar ishchi guruh a'zosi hisoblanadi.